IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH VA INSONGA E'TIBORNING KUCHAYTIRILISHI

Sultonmurodov Kamronbek Soli o'g'li

Navoiy davlat Pedagogika instituti

Tarix fakulteti, tarix ta'lim yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, inson omili, qadar qimmati kabi ma'lumotlar bayon qilingan. Maqolad hozirgi kunda yoshlarimizga berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish kabi ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari mamlakatimizda aholini kambag'allikdan chiqarish kabi ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qonunlar, farmonlar, ta'lim tizimi, kambag'allik, yoshlar daftari, kridit, yosh oila, inson manfaatlari, inson qadri.

Eng ahamiyatli vazifa, yosh avlodga puxta bilim berish, ularni yetuk inson qilib tarbiyalash.

Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimiz ta'lim tizimini, xususan, oliy ta'lim, ilm-fan sohasini jahon standartlari darajasiga olib chiqish yuzasidan so'ngi yillarda yurtimizda juda katta hajimdagi ishlari amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ''Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab ilmli bo'laman, degan, yuragida o'ti bor jo'shqin yoshlarimizning tahsil uchun ham qulaylik yaratilmoqda''. Ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lgan oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limning yanada rivojlantirish milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tgan O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Ustuvorlikning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 Farmoni bilan tasdiqlangan ''O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kansepsiyasi'', 2020-yil 2-martdagi PF-5953 Farmoni bilan tasdiqlangan ''2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ''Ilm ma'rifat va raqamli iqtsodiyotni rivojlantirish yili''da amalga oshirishga oid dasturda, 2019-yil 30-avgustdagi ''Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida''gi, 2019-yil 11-iyuldagi ''Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida''gi Qarorlarda o'z ifodasini topgan".

Bugun Yangi O'zbekistonda hayotning barcha sohalari chuqur islohatlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatida faoliyatini boshlaganda, dastlab yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlashtirishga qaratilgani bejiz emas. Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog'liqni saqlash tizim faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirishga qaratilgan ko'plab farmon va qarorlar ishlab chiqilgan. Prizidentimizning parlament vakillari

hamda xalqimizga qilgan bu yilgi Murojatnomasi mamlakatimizning siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ko‘p masalalarni, o‘z yechimini kutib turgan muammolarni qamrab oladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. ‘‘Yurtboshimiz tomonidan kirib kelayotgan 2023-yilga ‘‘Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili’’ deb nom berilishi oxirgi yetti yillik davr ichida mamlakatimizda inson qadrini oshirish, manfaatlarini yuksaltirish hamda fuqarolarimizning ma’naviy-axloqiy, siyosiy-huquqiy va zamonaviy tafakkurlarini oshirish borasida olib borilayotgan ishlarning uzviy davomi bo‘lib xizmat qiladi. Qayd etish lozimki, ta’lim tizimini isloh etish, ta’lim sifatini oshirish bilan birga, ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, jamiyatimizda o‘qituvchi va murabbiylarning tutgan mavqeyini oshirish hamda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar yangi bosqichga olib chiqildi. Bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish 9 foizdan 38 foizga yetdi, oliy ta’lim muassasalari soni 2,5 barobarga oshib, 198 taga yetdi hamda qabul jarayonlarida turli adolatsizliklarga barham berildi. Oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash jarayonlari, o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish tizmi takomillashtirildi hamda xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan professor-o‘qtivchi va talabalar almashinuvi, loyhaviy hamkorlik ishlari kengaytirildi. Yurtboshimiz tomonidan ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlashga yana alohida e’tibor qaratilishi, o‘qituvchilar maqomini, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni bosh Qomusimiz-Kanistitutsiyada alohida belgilash tashabbusini ilgari surilishi mamlakatimizda ta’lim-tarbiyaga qaratayotgan e’tiborning yana bir isboti bo‘ldi. Yevropa kasbiy ta’lim standartlari asosida viloyatlarda texnikumlar tashkil etilishi amalda faoliyat yuritayotgan texnikumlarga namuna bo‘lish bilan birga, o‘rta-maxsus ta’lim tizimida erkin raqobat muhitini mustahkamlaydi hamda ta’lim sifatini zamon talablarida tashkil etishga xizmat qiladi. Tan olishimiz kerakki, bugungi kunda sanoat-qurilishi, ishlab chiqarish, logistika va energetika tizimida hamda ushbu sohalar uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonlarida ayrim muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Davlatimiz rahbarining kimyo sanoati, elektrotexnika, transport va energetika sohalarida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda Muhandislik maktablarini tashkil etilishi ushbu muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.’’

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ‘‘Ta’lim sifatini oshirish- Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir’’. Ushbu holatni inobatga olib, davlatimiz rahbari 2022-yil davomida taraqqiyotning ushbu muhim omillariga uzluksiz katta e’tibor qaratib keldi. Jumladan, o‘tgan yili 6-iyulda Prezidentimizning ‘‘2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi farmoni hamda ‘‘2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda mamlakatimizda innovatsion taraqqiyotni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsion va texnologiyalarni keng joriy etish, inson kapitali, xususan ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan edi. Mamlakatimizda ta’lim xizmatlari sifatini oshirish uchun o‘quv-tarbiya muassasalari va pedagoglar barchaning e’tibori markazida bo‘lishi kerak. Bunga bir qancha davlatlar tajribasini misol keltirish mumkin. Jumladan, Singapur davlati juda qisqa vaqtda o‘z ‘‘iqtisodiy mo‘jiza’’sini yaratdi. Bu mo‘jizaning muallifi Li Kuan Yudan ‘‘Qanday qilib bunga erishdingiz’’, deb so‘ralganda u:‘‘ Men davlat byudjetini ta’limga yo‘naltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko‘tardim. Davlatdagi mo‘jizalarni qilganlar muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtar avlodni yetishtirib beradi. Buning uchun ulardan minnatdormiz’’, deb javob bergan. Xuddi shunday Yaponiya ham ta’limni rivojlantirish evaziga juda qisqa muddatda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Shu tariqa ta’lim muassasasiga, pedagoglarga e’tibor mamlakatni shiddat bilan juda yuksak darajaga ko‘tardi. Davlatimiz rahbari uqtirganidek, bizda ham mutassadilar, ziyolilar ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqat qilishi, o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish

bo‘yicha masalalarni birgalikda hal etishi kerak.’’ Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta‘limni qo‘llab-quvvatlashga qaratishimiz lozim. Yoshlarga ta’lim berish bilan birga, tarbiyaning ham uyg‘unligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ta’limni har tamonlama rivojlantirish yoshlarga yengilliklar berish maqsadida Prezidentimiz tomonidan yangi ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’gi qonunga imzo qo‘yildi. Bu albatta biz yoshlar uchun muhim qadam hisoblanadi. Men shuni aytishim kerakki, ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish kerak, chunki ta’lim tizimi samarali olib borilsa mamlakat rivojlanadi. Mana shu kundan boshlab Yaponiya, Koreya, Singapur,Finlandiya, Buyuk Britaniya,Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda ta’lim tizimi va samarali o‘qitish tubdan o‘zgardi. Ta‘lim mamlakat kelajagining poydevoridir. Har bir davlat aynan kuchli ta’lim tizimini yaratish va uni muntazam takomillashtirib borish haqida bosh qotiradi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonuni 1997-yil qabul qilingan bo‘lib, bugungi zamon shiddatlariga, umuman yangilanish, rivojlanishlarga javob bermay qolgan edi. O‘zbekiston Respublikasi ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’gi Qonuni 11 bob, 75 ta moddadan iborat bo‘lib, amaldagi qonunning 34 ta moddasidan 33 tasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. Qonunning asosiy maqsadi, ta’lim sohasidagi faoliyat, jumladan ta’limning turlari, shakllari, tizimini boshqarish, sifatini nazorat qilish, ta’lim-tarbiya ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilish mexanizimlarini ta’minlashdan iboratdir. Qonunning asosiy jihatlaridan yana biri shuki, mamlakatimizda ta’limni tashkil etishda alohida e’tibor qaratib kelinayotgan ta’lim va tarbiyaga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning singdirilishi, shu vaqtgacha asosiy prinsip sifatida belgilanmagan edi. Endilikda ushbu prinsip qonun bilan belgilandi. Davlat ta’lim sohasini, ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, shuningdek investorlarning, shu jumladan chet ellik investorlarning ushbu sohadagi huquqlqri va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan investitsiyalarini jalb etish uchun qulay ijtimoiy-iqtsodiy, tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilishini ta’minlaydi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilikka binoan chet ellik fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olishga haqlidir. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bilan teng huquqlarga ega. Shuningdek bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi xususan oliy ta’lim tizimini isloh qilish, ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish bugungi siyosatning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lmoqda. Ushbu fikrimizning asosi sifatida aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda 61-sonli ‘‘Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qarori qabul qilinib, ushbu qaror ta’lim qonunchiligidagi so‘nggi muhim o‘zgarishlarni olib kelishiga sababchi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu qaror oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarni mustqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag‘larini jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra 35 ta olim ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berildi. Bundan tashqari ko‘plab institutlarga unversitet maqomi berilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda biz yoshlarga yaratilayotgan bunday imkoniyatlardan unumli, foydalanishimiz kerak. Yurtimiz rivojlanayotgan bir davrda insonning qadri ham ulug‘lanib kelinmoqda. Yurtimizda har bir sohada ro‘y berayotgan o‘zgarishlar avvalo inson uchun yaratilayotgan qulayliklarning yorqin ifodasidir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek,- ‘‘inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishni, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz’’. Yangi O‘zbekistonimizda keyingi yillarda olib borilayotgan insonparvarlik siyosati dunyo

hamjamiyatda e'tirof etilayotgani barchamizni birday quvontiradi, g'ayratimizga g'ayrat, shijoat qo'shadi. Bizda ''Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun'' va ''Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak'' tamoyillari asosida fuqarolarning ijtimoiy muammolarini hal etish, huquqiy va qonuniy manfaatlarini ta'minlab kelmoqda. Inson uchun hamisha uning huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlaridan muhim qadriyati bo'lmagan. Mamlakatimizda aynan bu borada keng ko'lamli demakratik islohatlar amalga oshirilmoqda. Hech kimga sir emas, bir necha yillar muqaddam O'zbekistonda inson huquqlari holati xalqaro hamjamiyat va tashkilotlar tomonidan qattiq tanqidga olinar, bu nafaqat yurtimiz nufuziga, balki mamlakatimiz iqtisodiy rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Bugun yuksak e'tibor bilan shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, joriy yilgi global so'rov natijalariga ko'ra, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tarixiy ahamiyatga molik 15 ta muhim islohati qatorida, ''Inson huquqlari kafolatlari kuchaytirildi, majburiy mehnat, shu jumladan, bolalar mehnati tugatilganligi'' alohida qayd etib o'tilgan.

Aholining uzoq muddat foydalanadigan tavarlar bilan ta'minlanganlik darajasini ko'radigan bo'lsak, aholining shaxsiy yengil avtomobillar bilan ta'minlanganlik darajasi 2017-yilda har 100 ta xonadonga 44 ta, televizorlar soni 154 ta, mobil telefon 257 ta to'g'ri kelganligi aholining ijtimoiy farovonlik darajasi ko'tarilayotganidan dalolat beradi. Bunday sharoitlarning o'zgarib borishi har bir insonni hayotdan rozi bo'lib yashashga yo'l ochib beradi. Yurtimizda aholini kambag'allikdan chiqarishga, ularni yaxshi hayot kechirishga doir ko'plab amaliy va nazariy ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda aholining yashash darajasini yaxshilash, kambag'alikdan chiqarish aholini ish bilan band qilish va kichik biznesga jalb qilish kabi ishlar olib borilmoqda. Aholining kambag'allik darajasini ko'radigan bo'lsak, o'tgan yilning o'zida 17 foizdan 14 foizga tushgani, bunda hokim yordamchilari 1 million nafar aholini kasb-hunarga o'qitib, tadbirkorligini boshlashga ko'maklashgani, daromadli ish bilan aholini band qilgani alohida ahamiyatga ega. Yangi 2022-yilda mamlakatimizda Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari say-harakatlarimiz ko'lami yanada avj oladi. Bunda aynan inson qadri uchun ezgu g'oyasi muhim vazifani o'taydi. Keyingi besh yil davomida mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar tufayli barcha jabhada tub o'zgarishlar ro'y bermoqda, xalqimizning dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalmoqda. Jamiyatimizda yangicha qadriyat va an'analar shakllanmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston xalqparvar, insonparvar davlat sifatida tilga tusha boshladi. Bunga yurtimizda kam ta'minlangan, nochor oilalarni qo'llab-quvvatlash va yuqorida aytib o'tganimizdek kambag'allikni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni misol qilib ko'rsatsak o'rinli bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan har bir oilaga yordam ko'rsatish maqsadida davlat budjetidan mablag'lar ajratish, ularni ish bilan ta'minlash yo'lida ko'plab ishlar olib bormoqda. Birgina aholining yashash sharoitini yaxshilash maqsadida O'zbekiston chet el mamlakatlari tajribasidan ham foydalanib kelmoqda. Masalan, Xitoy tajribasidan kelib chiqib, kambag'allik yuqori bo'lgan qishloqlarga vazirlik va idoralarni biriktirib, muhtojlarga ko'maklashish tizimini yaratish, oilaviy tadbirkorlik va tomorqchilikni rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Shunday ekan, insonni qadrlash, ulug'lash zamon talabiga aylanish tabiiy holdir. Insonni qanchalik qadrlab, mehnatini munosib taqdirlasa, u o'z mehnatini shu qadar takomillashtiradi, rivojlantiradi. Shu tarzda mehnat sifati ham oshib boradi. Inson mehnatini qanchalik yerga ursak, u shu qadar tanballashadi va mehnatining sifati pasayib boradi. Inson qadrlanmas ekan, el ham qadr topmaydi. Elning obro'yi inson qadri bilan o'lchanadi. Qaysi mamalakatda inson mehnati yuqori boholansa, o'sha mamalakatning obro'yi ham yuqori bo'ladi. Mustaqillik bizga inson mehnatini qadrlashni o'rgatdi. Shu asosda malakali ishchilar, mutaxasislar avlodi shakllanib bormoqda. Ammo, afsuski, inson mehnatining haqqi past qo'yilgani sababli ayrim malakali yurtdoshlarimiz yuqori

stavkada haq to‘lanadigan mamlakatlarga chiqib ketmoqda. Mehnatga haq to‘lashda ilg‘or mamalakatlar tajribasidan andoza olish kerak. Bugun avvalgi davrlarda hisobga olinmagan kamchiliklarni tuzatish, mahnatga haq to‘lash tartibini adolatli me’yorga keltirish lozim. Shundagina yurtimizda chinakamiga inson qadri ko‘tariladi. Bu esa yurtimiz nufuzi oshishi uchun asos bo‘ladi. Xullas, inson zoti islom falsafasida yer yuzida eng qadrli, eng ulug‘ mavjudotdir. Shundan kelib chiqib, inson zotini, qadrlash majburiyati har birimizning zimmamizga yuklangan. Biz yoshlar ham, shunday sharoitlardan unumli foydalanishimiz, yurtimiz ravnaqi uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

Xulosa, o‘rnida shuni aytish lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan bunday o‘zgarishlar yangi-yangi qonun va qarorlarning ishlab chiqilishi, insonlarning hayotida o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Xalqimiz aytganidek: ‘‘Kim o‘z qadrini bilmas ekan, o‘zgalar qadrini hech ham bilmas’’. Dahaqiqat, inson o‘z qadrini bilishi uchun ma’rifat sohibi bo‘lishi kerak. Ma’rifatli bo‘lishi uchun esa ko‘proq kitob mutolaa qilishi, ajdodlarimizdan qolgan boy meroslarni hurmat qilish kerak. Hozirgi kunda yurtimizda bilim olish uchun, tadbirkorlik qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari ta’limda islohatlarning yangi ko‘rinishlari, o‘qituvchi pedagoglarni qayta o‘qitish tajribasiz pedagoglar o‘rniga bilimli yosh pedagoglarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablarda, oliy ta’lim muassasalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini maroqli o‘tkazish maqsadida ko‘plab ko‘rik tanlovlar, kitobxonlik musobaqalari o‘tkazilib kelinmoqda. Hukumatimiz tomonidan yoshlarimizning bilim tajribalarini oshirish maqsadida, chet elga o‘qishga yuborish, ta’lim tizimini o‘rganish va uni hayotga tadbiq etish uchun keng imkomiyatlar yaratib berilmoqda. Zero,biz yoshlarga berilayotgan bunday imkoniyatlar va imtiyozlardan unumli foydalanib, yurtimiz rivojiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shavkat Mirziyoyev . Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: ‘‘O‘zbekiston’’ nashriyoti, 2021.- 22.bet

2. Shavkat Mirziyoyev . Yangi O‘zbekiston strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr.- Toshkent: ‘‘O‘zbekiston’’ nashriyoti, 2022. – 416.bet

3. Xalq so‘zi gazetasi. N.29. 11.02.2023 yil

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‘2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi 83-son qarori, 2022 yil 22-fevral. 483-b.